



OLMOSHLARNING QIPCHOQ LAHJASIDAGI VA ADABIY TIL O'RTASIDAGI TAFOVUTLAR

Narbayeva Xosiyat Adilbek qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy
tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10972206>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-aprel 2024 yil

Ma'qullandi: 13-aprel 2024 yil

Nashr qilindi: 15-aprel 2024 yil

KEY WORDS

*Qipchoq shevasi, olmosh, adabiy
til, sheva, lahja, tovush o'zgarishi.*

ABSTRACT

*Maqolada asosan Beruniy tumani hududida
olmoshlarning qo'llanilishi adabiy til bilan solishtirildi.
Qipchoq shevasi va olmosh haqida nazariy ma'lumot
berildi.*

Kelajak yoshlar qo'lida degan gaplarni juda ham ko'p eshitamiz. Kelajak haqiqatan ham yoshlar qo'lida ularga to'g'ri tarbiya va ta'lim berish kelajakning muvaffaqiyatlarga to'la bo'lishini ta'minlaydi. Tilshunoslikning aloqasi bo'limgan sohaning o'zi yo'q. Qaysi sohada faoliyat yuritmang, albatta, til bilan, so'z bilan ishlaysiz. Shunday ekan barcha yoshlar tilshunoslikdan habardor bo'lishlari kerak. Tilning saqlanishi orqali biz o'z madaniyatimizni, milliy boyliklarimizni ham saqlab qolgan bo'lamiz.

Kundalik hayotimizda olmoshlardan ko'p foydalanamiz, Lekin ular adabiy til va shevada tovushlarning talaffuzi jihatidan biroz farq qiladi. O'zbekiston hududidagi shevalarini o'rganish 20-30- yillardan boshlab rus olimlari tomonidan o'rganila boshlagan. O'zbek shevalari olimlar tomonidan turli xil guruhlarga ajratilgan. Masalan: professor I. I. Zarubin shevalarni to'rtta Farg'ona, Xiva, Toshkent, Samarcand – Buxora kabi guruhga ajatagan. Professor K. K. Yudaxin o'zbek shevalarini Farg'ona, Toshkent, qipchoq, Xiva va shimoliy o'zbek shevalariga ajratadi. Professor E. D. Polivanov o'zbek shevalari bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar bajargan.

1 Qipchoq lahjasি. Uni bir necha tipga ajratadi: 1. O'rta Xorazm (Gurlan, **Bog'ot**, Shobboz) shevalari, 2. «A»lovchi qozoq-nayman, Farg'ona-Qoraqalpoq shevalari. 3. Qurama shevalari, 4. Shimoliy o'zbek (**So'zoq Cho'laqo'rg'on**), 5. O'rta o'zbek (qipchoq) shevalari va janubiy o'zbek shevalari (laqay, Afg'onistondagi qipchoq-o'zbek shevalari). Toshkent viloyatining Ohangaron vodiysi, Farg'ona, Andijon viloyatlarida, Samarcand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari aholisining ko'pchilik qismi qipchoq shevasining aholisi hisoblanadi.

¹ Ashirboyev. S. O'zbek dialektologiyasi – Toshkent: 2013

Qipchoq lahjasi va adabiy til bir-biridan so'z tarkibidagi ayrim fonemalarning talaffuz qilinishi bilan farq qiladi. Bilamizki, O'zbekiston hududida uchta lahja bor. Bular o'g'uz, qarluq va qipchoq lahajalari hisoblanadi. Shulardan qipchoq lahjasi vakillarining nutqida olmoshlarning ishlatilishini adabiy til bilan solishtirib ko'ramiz.

²Boshqa turkum leksemalariga beriladigan so'roqni bildiruvchi va shunday leksemalar o'mida ishlatiluvchi birliklarga olmosh leksemalar turkumi deyiladi. Olmoshdan leksik ma'no emas, balki mavhum grammatik ma'no anglashiladi.

³Boshqa turkum leksemalariga beriladigan so'roqni bildiruvchi va shunday leksemalar o'rnida ishlatiluvchi birliklarga olmosh leksemalar turkumi deyiladi. Olmoshdan leksik ma'no emas, balki mavhum grammatik ma'no anglashiladi.

Har bir lug'aviy leksemalar turkumining o'z so'roq olmoshlari bo'ladi:

- 1) ot so'roq olmoshlari: kim-, nima-;
- 2) sifat so'roq olmoshlari: qanday, qanaqa, qaysi;
- 3) son so'roq olmoshlari: necha, qancha, nechtadan, nechanchi;
- 4) ravish so'roq olmoshlari: qachon, nega, nimaga, nechuk, qanday qilib, qay tarzda;
- 5) fe'l so'roq olmoshlari: nima qildi, nima qiladi, nima qilayotir

⁴"Ishoraviylik" ramzi bilan ataluvchi olmosh boshqa leksemalardan ajralib turadi. O'zbek tilshunosligida olmoshning doirasi va vazifasi zo'rma-zo'rakilik bilan ancha chegaralanib "ot, sifat, son o'rnida qo'llanuvchi so'z" sifatida o'ta tor tushinilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish, taqlid, undov, gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmag'an.

O'zbek tilida olmoshlarning yettita turi bor. Bular:

1. Kishilik olmoshlari: men, sen, u, biz, siz (sizlar), ular;
2. O'zlik olmoshlari: o'z;
3. Ko'rsatish olmoshlari: bu, shu, u, o'sha, ana, mana, mana bu, manashu, manavi, anovi;
4. So'roq olmoshlari: kim? nima? qayer? qanaqa? qaysi? qalay? qancha? necha? nega?;
5. Belgilash olmoshlari: Hamma, bari, har bir, har nima, har narsa, har qanday, har qaysi, ba'zi;
6. Bo'lishsizlik olmoshlari: hech kim, hech narsa, hech qachon, hech qanaqa, hech qaysi;
7. Guman olmoshlari: kimdir, nimadir, allakim, allaqanday, qaysidir, allanarsa, allaqachon, allaqaysi kabi olmoshlar hisoblanadi.

Bu olmoshlarning ayrimlari faqat qo'shimcha qo'shilganda farq qiladi adabiy tildan ayrimlari esa o'zi ya'ni qo'shimcha qo'shilmasa ham farq qiladi. Masalan: men, sen kabi kishilik; o'zlik; kim? qayer? qaysi? qancha? kabi so'roq olmoshlari; bu, shu kabi ko'rsatish

² Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent - 2006

³ Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent - 2006

⁴ Sayfullayeva. R., Mengliyev. B., Boqiyeva. G., Qurbonova. M., Yunusova. Z., Abuzalova. M. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent: 2009

olmoshlari adabiy tildan farq qilmaydi. Ammo, qo'shima qo'shilganda tovush o'zgarishi yuz beradi. Asosan jo'naliш kelishigi qo'shimcha qo'shilganda tovush o'zgarishi yuz beradi.

Adabiy til - Sheva

Menga - mongo

Senga - songo

Unga - vo'nga

Mongo dukonnan olma ap kep ber – Menga do'kondan olma olib kelib ber. Songo zo'r ko'yak ap keldim – Senga zo'r ko'yak olib keldim. Vo'nga nuvg'a aytting? – Unga nimaga aytting.

Kishilik olmoshlaridan biz-bizar, siz-sillar, ular-vo'lar tarzida talaffuz qilinadi. Ko'rsatish olmoshlari mana-mina kabi; so'roq olmoshlari nima-nuvi, necha-nicha, necha-nichcha, nega-nuvg'a kabi; belgilsh olmoshlari hamma-amma, har bir-ar bir, har nima-ar narsa, har qanday-ar qanday, har qaysi-ar qaysi kabi; bo'lishsizlik olmoshilari hech kim-yech kim, hech narsa-yech narsa, hech qachon-yech qachon, hech qanday-yech qanday, har qaysi-ar qaysi kabi talaffuz qilinadi.

Biz keldik – Bizar keldik; siz keldingiz – Sillar keldinglar; ular keldilar - Vo'lar keldilar. Mana hammasi tugadi – Mina hammasi tamom bo'ldi. Necha kun bo'ldi? – Nicha kun bo'ldi? Nega kelding? - nuvg'a kelding? Hamma keldi – amma keldi. O'quvchilarning har biriga bering - O'quvchilarning ar birina bering. U hech qachon kelmaydi - Vo' yech qachon kemidi.

Guvohi bo'lganimizdek olmoshlarda tovush o'zgarish hodisasi ham tovush tushish hodisasi ham kuzatiladi. Guman olmoshlari kam qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev. S. O'zbek dialektologiyasi – Toshkent: 2013
2. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent - 2006
3. Sayfullayeva. R., Mengliyev. B., Boqiyeva. G., Qurbonova. M., Yunusova. Z., Abuzalova. M. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent: 2009